



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH KAMBAG'ALLIKDAN CHIQRISHNING SAMARALI YO'NALISHI

Mutalova Dilorom Maxamadjanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrası professorı, i.f.n.

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Received: xxxx Accepted: xxxx Issue: 1 DOI: xxxx	Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida o'zini o'zi band qilishni tashkil etish va rivojlantirish masalalari, ularning samaradorligi ko'rib chiqilgan. O'zini o'zi band qilishni yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy takliflar berilgan. Bunda o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari, o'z-o'zini ish bilan band bo'lganlar sonining o'sish dinamikasi tahlil qilindi, ushbu masala bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganildi.
KEYWORDS Soliqlar, o'zini o'zi band qilish, daromad, stavka, iqtisodiyot, davlat, davlat byudjeti, davlat iqtisodiyoti, soliqlar va to'lovlarning zarurligi, iqtisodiyotni tartibga solish, soliq tizimi, kambag'allik.	

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Aholimiz bizdan maktab, bog'cha va shifoxonalarni ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot sifatini oshirishni, mahallada yo'l, suv, elektr, transport muammolarini hal qilishni, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni, adolatni ta'minlash, ovoragarchilik, byurokratiya va korrupsiyani yo'q qilishni kutmoqda" [1] deb aytilgani, kambag'allikka qarshi kurash tan olingan xalqparvar siyosatining mamlakatimizda keng tarqalgan ko'rinishi bo'lgan o'zini o'zi band qilish yo'nalishi juda katta samara bermog'ida, chunki bu yo'nalish bir tarafdin fukarolarga daromad keltiradi, ikkinchi tarafdin unga kelajakda pensiya olish uchun ish staji ham beradi va uchinchi tarafdin mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini kam bo'lsa ham ko'paytirishga, to'rtinchi tarafdin ular respublikamizning byudjetdan tashqari pensiya fondi daromadlarining o'sishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Analiz literaturı). Davlat byudjeti daromadlarining ko'payishida tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishda soliqlar va soliqsiz to'lovlarning o'rnı va mazkur faoliyatni rivojlantirish masalalarida dunyo mamlakatlari, mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Azarenko V. E. "Rossiya Federatsiyasida o'z-o'zini ish bilan band bo'lgan fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini legallashtirish muammosi" "O'z-o'zini ish bilan ta'minlash" tushunchasi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Biroq, amaldagi qonunchilikda "o'z-o'zini ish bilan ta'minlash", "o'z-o'zini ish bilan ta'minlash" atamalarining rasmiy talqini hali ham mavjud emasligini ta'kidlash joiz. Rossiya Federatsiyasi Adliya vazirligi "o'z-o'zini ish bilan band qilish" tushunchasining quyidagi ta'rifini taklif qiladi-bu foyda olishga qaratilgan jismoniy shaxslar uchun xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish uchun shaxsiy mehnat ishtirokiga asoslangan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiradigan, ammo yakka tartibdagi tadbirkor

sifatida ro'yxatdan o'tmagan va shaxsiy mehnat faoliyatiga ega bo'lmagan shaxs [2].

Mutalova D.M., Tuxliyev B.K. "Biznesni soliqqa tortish" asarida ta'kidlab shunday deydi: "konsepsiyani quyidagicha shakllantirish mumkin: "tadbirkor" foyda olish va o'z mulki asosida o'z xavfi va xavfi ostida harakat qilish maqsadida qonun bilan taqiqlanmagan har qanday qonuniy faoliyat bilan shug'ullanadigan jismoniy yoki yuridik shaxsdir" deya ta'kidlaydilar [3].

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods. Syel i metody issledovaniya). Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni holatiga baho berish va tahlillar hamda chet el tajribalaridan kelib chiqqan holda soliq tizimida Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results. Analiz i rezultaty.). O'zbekiston Respublikasida o'zini o'zi band qilish 2019-yilda mamlakatimiz aholisini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida joriy kilingan bo'lib, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-sonli "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingandan so'ng, bu yo'nalishda band bo'lganlar soni kupayish sur'atlari yanada tezlashdi.

O'zini o'zi band qiluvchilar faoliyat turlari uzluksiz kengayib bormog'ida va 2022-yilning 1-dekabr holatiga 80 turga yaqinlashdi (1 - ilova).

O'z-o'zini ish bilan ta'minlaydiganlar turli xil kasblar (masalan, dasturchi, veb-ishlab chiquvchi, kompyuter ustasi, ma'lumotlar tahlilchisi, tizim ma'muri kabilar) bo'yicha xizmatlarni taqdim etishlari, o'z mahsulotlarini sotishlari va uy-joylarni ijaraga olishlari mumkin.

O'zini o'zi band qiluvchilarning o'z mehnat faoliyati natijasida olgan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi va natijada ular jismoniy shaxslar daromad solig'iga tortilmaydi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar o'z maxsulotlarini (ishlarini, xizmatlarini) reklama qilish va ular sifati to'g'risida iste'molchilar fikr-mulohazalarini so'rab olish xamda kredit olish xuquqiga egadirlar.

Begona tovar sotuvchisi o'zini o'zi ish bilan ta'minlaydiganlarga xaridorlar bilan hisob-kitob qilish uchun onlayn kassa bergan bo'lsa yoki mijoz tovarni oldindan to'lagan xolda va uni yetkazib beruvchi kurer kerak bo'lsa, kurer sifatida o'zini o'zi ish bilan ta'minlashi mumkin.

O'zini o'zi band qiluvchi jismoniy shaxslar bilan, ya'ni oddiy fuqarolar bilan, shuningdek yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Faoliyati natijalari bo'yicha hech kimga va hech qaysi tashkilotga hisobot bermaydilar;

Shu bilan birga, o'zini o'zi band qiluvchilarga quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanish man etilgan:

- aksiz to'lanadigan tovarlar va markirovka qilinadigan tovarlarni (alkogol, tamaki, benzin, yengil avtomobillar, ba'zi turdagi kiyimlar, poyabzal, parfyumeriya, zargarlik buyumlari va boshqalar)ni sotish;
- o'zining ishlab chiqarishidan tashqari har qanday tovarlarni sotib olib qayta sotish. Masalan, tayyor o'yinchoqni sotib olib, uni qayta sotolmaydi, uni faqat o'zi ishlab chiqargandagina mahsulot sifatida sotishi mumkin;
- foydali qazilmalar (ko'mir, neft, gaz, qum, ohak va boshqalar)ni qazib olish va sotish;
- topshiriq shartnomasi, komissiya yoki agentlik shartnomasi bo'yicha ishlash, ya'ni vositachi bo'lish va boshqa shaxsning manfaati uchun ba'zi harakatlar qilish;
- tijorat, ko'chmas mulkini ijaraga berish, ko'chmas mulk va transport vositalarini sotish bilan shug'ullanish;
- tovar sotuvchisi manfaati uchun kurer bo'lish va mijozlardan pul olish.

Yuqoridagilardan tashqari, notariuslar, arbitraj menejerlari, advokatlar va vositachilar o'zini o'zi band qiluvchilar qatoriga kira olmaydilar.

O'zini o'zi band qiluvchilar ish beruvchi sifatida yollanma ishchilarni ishga ololmaydilar.

Ilovada keltirilgan faoliyat turining bittasi yoki bir nechtesi bilan shug'ullanuvchi shaxs byudjetga hech qanday soliq to'lamaydi, faqatgina har yili bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari (2022-yil 1-iyun holatiga 300 ming so'm) miqdorida joriy yilning 1-dekabriga qadar pensiya sug'urtasiga to'lov (ijtimoiy soliq) to'lab boradi va ushbu mablag'lar nafaqani hisoblash uchun byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yo'naltiriladi, to'lovchiga esa ish staji va nafaka yozib boriladi.

O'zini o'zi band qiluvchilar shu makomdagi faoliyatidan qancha daromad olganidan qat'iy nazar 300 mingdan ortiq to'lamaydilar. Agar o'zini o'zi band qiluvchilar bir yilda 4 oy davomida yakka tadbirkor maqomida faoliyat yuritib, 400 million so'm daromad olgan bo'lsa, qolgan 8 oyida o'zini o'zi band qiluvchi maqomida ishlab 800 million so'mlik daromad qilgan va 1 yilda faqat 400 milliiondan 4 foizli stavka bilan soliq to'laydi, 800 million so'mdan umuman soliq to'lamagan, ya'ni o'zini o'zi band qiluvchi maqomida ishlovchi sifatida olgan daromadidan faqat 300 ming so'm to'laydi.

Shuni takidlash kerakki, o'z o'zini band qilganlar ro'yxatdan o'tishlari osonlashtirilgan, mutlaqo bepul va uydin chiqmagan holda Soliq ilovasi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali mumkin. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng rasmiy hujjat sifatida foydalaniladigan QR-kodga ega ma'lumotnoma beriladi.

O'zini o'zi band qilishga qiziqish juda katta bo'lgani uchun ular soni to'xtovsiz o'sib borayotir. Masalan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar

soni birgina 2022-yilning o'zida (1-yanvardan 1-dekabrigacha) 1210,8 ming kishidan 1571,3 ming nafarga yetdi, ya'ni 11 oy ichida o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 29,8 foizga, ya'ni 360,5 ming kishiga o'sdi.

Shu davrda ruxsat etilgan 80 ga yaqin faoliyat turi ichida eng ko'p o'sish quyidagi uch faoliyat turlari buyichv kuzatildi. Bular quyidagilardir:..

- qishloq ho'jaligi – 64,1% (195,8 mingta);
- axborot-kommunikatsiya xizmatlari – 37,8% (10,7 mingta);
- maishiy xizmatlar ko'rsatish – 26,8% (93,4 mingta).

Chet el tajribasi

Respublikamizda o'z – o'zini ish bilan ta'minlashning qanchalik samarali tashkil etilganligini aniqlash maqsadida chet el mamlakatlari tajribasini o'rganib chiqildi. Rossiya Federatsiyasida soliq qonunchiligida soliq qonunchiligida o'z – o'zini ish bilan ta'minlash - bu 2019-yilda tajriba sifatida kiritilgan maxsus soliq rejimi sifatida kiritilgan va rasmiy ravishda "professional daromad solig'i" (qisqartirilgan PDS) deb nomlangan. 2022-yilda Rossiyaning barcha mintaqalari aholisi, shuningdek ba'zi chet elliklar – Belorusiya, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iziston fuqarolari o'z-o'zini ish bilan ta'minlashi mumkin. 2022-yil 1-avgustdan boshlab Ukraina fuqarolari o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydiganlar qatoriga qo'shilishgan.

Rossiyada o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydiganlar o'z faoliyatidan tushgan daromad miqdoriga karab soliq to'laydilar. ya'ni soddalashtirilgan soliq tartibida yagona soliq yoki yagona qishloq xo'jaligi solig'iga tortilganlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar PDSga o'tishlari mumkin. Buning uchun ular o'z – o'zini ish bilan band bo'lganlar ro'yxatidan o'tishlari va 30 kun ichida maxsus rejimlardan voz kechish to'g'risida ariza berishlari kerak, patent bo'yicha ishlaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar patent tugaguncha kutishlari yoki avval patentdan voz kechishlari va shundan keyingina o'z-o'zini ish bilan ta'minlashlari kerak.

Masalan, o'zini o'zi ish bilan ta'minlaydigan o'qituvchi 2022-yil iyun oyida ingliz tilida 20 ta dars o'tkazdi va 20 ming rubl daromad oldi. U darslarning yarmini yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo'lmagan oddiy fuqarolarga o'tkazdi, shuning uchun soliq 4% stavka bo'yicha hisoblanadi va butun oy uchun 400 rublni tashkil qiladi. Va u daromadning qolgan yarmini korporativ mijozlar – kompaniyaning xodimlari bilan darslardan oldi, ular unga joriy hisob varag'idan haq to'lashedi. Korporativ mijozlar bilan darslar uchun o'qituvchi 6% soliq, ya'ni 600 rubl to'laydi. Faqat iyun oyida o'qituvchi 1000 rubl soliq to'lashi kerak. Miqdor va "soliquini to'lash" kopiyesi ilovada 12-iyulgacha paydo bo'ladi va uni 25-iyulgacha to'lashlari kerak.

Shu yerda O'zbekiston Respublikasida o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydiganlar olgan daromadlari miqyosidan kat'iy nazar, bir yilda bir marta to'lov (bu yili 300 ming sum) to'laydilar, Rossiyada esa qancha ko'p daromad olsalar shuncha ko'p to'lov to'laydilar, ya'ni mamlakatimizda ko'proq imtiyoz berilganligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

O'z-o'zini ish bilan band bo'lganlar uchun boshqa majburiy soliqlar yo'q. To'langan soliqning bir qismi (37%) avtomatik ravishda majburiy tibbiy sug'urtaga o'tkaziladi, shuning uchun o'z-o'zini ish bilan band bo'lganlar majburiy tibbiy sug'urta polisi bo'yicha bepul tibbiy yordam olish huquqiga ega. Bundan tashqari, siz hech narsa to'lashingiz shart emas.

Xulosa. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar qatorida yuksaltirish hamda aholini ijtimoiy himoyalash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonini yanada kengaytirishda muhim dastaklardan biri hisoblangan soliq mexanizmini maqbullashtirish ahamiyatli masalalardan biridir.

Mamlakatimizda infratuzilma subyektlari faoliyati talab darajasida rivojlanmaganligi, sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotda yetakchi tarmoq sifatida shakllanishini birmuncha sekinlashgan, natijada ko'p sonli potensial sug'urtalanuvchilarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan qiziqishi pastligicha qolmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, sug'urta faoliyatining rivojlanishi,

xizmatlar hajmi hamda samaradorligining oshishida o'zini o'zi band qilganlar sonining uzluksiz oshib borishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu sharoitda pensiya sug'urtasi jamg'armasini to'ldirishda o'zini o'zi band qilganlar yo'nalishining amaliyotga joriy kilinishi sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kambag'allikka qarshi kurash sohasida muhim ahamiyatga ega ekanligini va temir daftar, ayollar daftari va yoshlar daftariga kiritilgan jismoniy shaxslar sonining keskin kamayishiga olib kelishni boshladi. Bu faoliyatni yanada takomillashtirish masadida:

- o'zini o'zi band qilgan fuqorolarning faoliyat turini uzluksiz kengaytirib borish lozim;

- o'zini o'zi band qiluvchilar ish beruvchi sifatida 5 kishigacha yollanma ishchilarni ishga olishiga ruxsat berish ammo xar bir yollanma ishchi uchun alohida yillik to'lovni to'lab borishlari lozim.

Biz kiritayotgan takliflarni amaliyotga tadbiq qilish byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadigan tushumlar miqdorining oshib borishiga, kambag'allar sonining kamayishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga va aholi farovonligining oshib borishiga xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr
2. Азаренко В.Е. Проблема легализации предпринимательской деятельности самозанятых граждан в РФ / В.Е. Азаренко // Илмий электрон журнал Меридиан. — 2020. — № 8 (42). — С. 39-.
3. Муталова Д.М. Тухлиев Б.К. Налогообложение бизнеса //Ўқув қўлланма//Иқтисодиёт, Тошкент 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat, 2022-y.
5. O'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxati, O'zR Prezidentining 08.06.2020-yildagi PQ-4742-sonli qaroriga ilova.
6. “O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 806-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizom O'zR VMning 2020-yil 23-dekabrda qabul qilingan.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4742-son qarori 2020-yil 8-iyun.